

KONSEPTLAR TIPOLOGIYASI VA “JANG” KONSEPTI MADANIY-IJTIMOIIY KONSEPT SIFATIDA

Tuxtanazarova Sarvinoz Umidjon qizi,
Farg’ona davlat universiteti tayanch doktoranti
tuxtanazarovasarvinoz@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21204479>

Annotatsiya : Ushbu maqolada tilshunoslikning kognitiv yo’nalishida konseptlarning turli tipologiyalari tahlil qilinadi. A. Vejbitskaya, A.P. Babushkin, N.N. Boldyrev, V.I. Karasik, S.A. Askoldov va E.V. Sergeyeva kabi olimlarning konseptlarni oddiy va murakkab, leksik-frazeologik, abstraksiyalanish darajasi, diskursiv xususiyatlari, badiiy va badiiy bo’lmagan, makro va mikro konseptlar kabi turli mezonlar bo’yicha tasniflash yondashuvlari ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: konsept, makro va mikro konsept, badiiy konsept, oddiy va murakkab konsept, freym, script, geshtalt.

Konseptni o’rgangan olimlar uning turlarida ham bir to’xtamga kelishganicha yo’q. A.Vejbitskaya konseptlarni oddiy va murakkab turlarga bo’lib, oddiy konseptlar semantik primitivlarga (bu tilning eng asosiy va ajralmas ma’no birliklari bo’lib, ular boshqa ma’nolarga bo’linmaydi va barcha tillarda umumiy tushunchalarni ifodalaydi) yaqin bo’lib, madaniy jihatdan kamroq bog’langan, ko’plab tillarda qo’llaniladi va leksik universallar hisoblanadi, murakkab konseptlar esa madaniyat bo’lib bog’liq bo’lib, ularni boshqa tillarga tarjima qilishda qiyinchiliklar tug’iladi. Yaxshilik va yomonlik universal konsept sifatida barcha tillarda deyarli o’xshash tushunchalar hosil qiladi, or-nomus, ma’naviyat konseptlari esa ingliz va o’zbek tillarida to’gridan to’g’ri tarjima qilinishi mushkul hisoblandi.

A.P.Babushkin konseptlarning turlarini o’rganar ekan, leksik-frazeologik konseptlarning 6 turini: mental tasvir, sxema, giperonim, freym, insayt, senariy va kolendoskopik konseptni sanab o’tadi. Boldyrev esa konseptning abstraksiyalanish darajasiga ko’ra quyidagi turlarga bo’lib o’rganadi: aniq-hissiy tasvir, tasavvur, sxema, tushuncha, prototip, prepositsiya, freym, skript, geshtalt.

Karasik konseptlarning diskursiv xusiyatlariga ko’ra ilmiy, badiiy, kundalik turlarga bo’ladi. S.A Askoldov badiiy va ilmiy konseptlarni o’zaro farqlab” Badiiy kontseptlarning bilish (познавательных) kontseptlardan eng muhim farqi, imkoniyatlarning noaniqligida namoyon bo’ladi. Bilish kontseptlarida bu imkoniyatlar yo real voqelikka mos kelishi talabiga yoki mantiq qonunlariga bo’ysundiriladi. Badiiy kontsept elementlarining bog’lanishi esa mantiq va real pragmatikaga butunlay yot bo’lgan badiiy assotsiativlikka asoslanadi. Bu assotsiativlikda qonuniyat va talabchanlik mavjud emas, deb bo’lmaydi. Ammo ular, baribir, hech qanday qoida va andozalarga sig’maydi va har bir alohida holatda o’ziga xos individual me’yorni namoyon qiladi”, - deydi. Bilish konseptlari insonning ratsional fikrlashi natijasida ma’lum bir kognitiv qoidalar asosiga qurilgan bo’lsa, badiiy konseptlarda assatsiyativlik ustunlik qilib mantiqiy qonunlar bunda asosiy rolni egallamaydi.

E.V.Sergeyeva badiiy va badiiy bo’lmagan konseptlarni o’zaro farqlagan holda, badiiy bo’lmagan konseptlarni kommunikativ, universal konseptlar deb atab, til egalari uchun umumiy bo’lgan, muloqot mobaynida namoyon bo’luvchi mental konstuksiya deb ataydi. Bu konsept har qanday til egasining til manzarasida umuman o’xshash tarzda namoyon bo’ladi. Badiiy konseptlar esa o’ziga xos original verbalizatsiya usullari orqali, individual baholash

va assotsiatsiyalar tizimi asosida namoyon bo’ladi. Badiiy bo’lmagan konseptlar verbal va noverbal vositalar orqali ifodlansa, badiiy konseptlar faqat til birliklari orqali verballashtiradi. U konseptlarni makro va mikro konseptlarga bo’lgan, mikrokonsept – bu mazmun hajmi kichik bo’lgan konsept bo’lib, u to’liq yoki qisman kattaroq mazmundagi konseptning tarkibiy qismiga aylanishi mumkin. Makrokonsept esa juda keng mazmunga ega bo’lib, o’zining assotsiativ-semantik maydoniga boshqa konseptlarni (to’liq yoki qisman) kiritishi mumkin. Tilshunos olimlar konsept-universaliyalarning mazmunij jihatdan 6 turdan iborat klassifikatsiyasini keltirib o’tdi: emotiv, aksiologik, mantiqiy yoki nazariy, madaniy yoki ijtimoiy, mifologik yoki xalq tasavvuriga oid, obrazli yoki estetik. Badiiy konseptlarni E.V.Sergeyeva individuallik darajasiga ko’ra ikki turga bo’ladi: umumiy badiiy konseptlar – turli mualliflarning matnlarida mazmuni va ifoda vositalari o’xshash bo’lgan mental konstruksiyalar va individual-mualliflik konseptlar – ma’lum bir muallifning ijodiga xos bo’lgan axborot yaxlitligi.

Konseptlar o’rtasidagi aniq chegaraning mavjud emasligi ham ularni ikki turga – makro va mikro konseptlarga bo’lish to’g’ri ekanligini ko’rsatadi. Jang konsepti o’zining ichiga qahramonlik, dushmanlik konseptlarini qamrab olsada, ular alohida konsept sifatida o’z sematik maydoniga ega. Jang konseptini universal konseptlar qatoriga kirgizish mumkin degan xulosaga uning barcha tillar egalari ongida ma’lum darajada tushuncha hosil qilishi sababli kelish mumkin. Yuqoridagi keltirilgan tipologiyasiga ko’ra “jang” konsepti jamiyatning madaniy, tarixiy, ijtimoiy xusiyatlarini aks ettirish tomonlarini hisobga olgan holda madaniy yoki kishilik jamiyatida doimiy sodir bo’ladigan sotsial fenomen sifatida qaragan holda madaniy va ijtimoiy konseptlar qatorida keltiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wierzbicka A. Lexicography and Conceptual Analysis. Ann Arbor: Karoma, 1980. — 368 p.
2. Аскольдов С. А. Концепт и слово // Русская словесность: от теории словесности к структуре текста: антология. — М., 1997. - С. 275-379.
3. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. - Воронеж: Изд-во ВГУ, 1996. - 43с
4. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика: Курс лекций по английской филологии. - Тамбов: Изд-во. ТамГУ, 2000. — 33 с.
5. Карасик, В. И. Субкатегориальный кластер темпоральности (к характеристике языковых концептов) / В. И. Карасик // Концепты : науч. тр. Центрконцепта. - Архангельск, 1997. - Вып. 2. - С. 156-158.
6. Сергеева Е.В. Концепт-универсалия и художественный концепт: проблема классификации